IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK MENEJMENT SAMARADORLIGI OSHIRISH

Mannabov Abduxamid Abdimajitovich

Erkin tadqiqotchi

Urakov Shuhrat Erkinovich

Ilmiy markaz boshlig'i o'rinbosari

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Harbiy ta'lim muassasasi rivojlantirishda yangi va ilg'or pedagogik menejment samaradorligini oshirish va ushbu jarayonning samarali tashkil etilishida bir nechta muhim omillar qay darajada ahamiyat kasb etishi va istiqboldagi samarali jihatlar haqida ilmiy fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar

Harbiy ta'lim, Qurolli Kuchlar, pedagogika, menejment, menejer, Xavfsizlik, psixologiya, Akkreditatsiya, qonun, akademiya.

Аннотация

В статье расскрыто повышение эффективности нового и передового педагогического управления в развитии военного образовательного учреждения Республики Узбекистан, и в эффективной организации этого процесса, выделены степень важности нескольких важных факторов, а также научные мнения и соображения об эффективных аспектах перспективы.

Ключевые слова

Военное образование, Вооруженные Силы, педагогика, менеджмент, менеджер, Безопасность, психология, Аккредитация, право, научные круги.

Abstract

In the article, increasing the effectiveness of new and advanced pedagogical management in the development of the military educational institution of the Republic of Uzbekistan and the extent to which several important factors are important in the effective organization of this process, and scientific opinions and considerations about effective aspects in the future are highlighted.

Keywords

Military education, Armed forces, pedagogy, management, manager, Security, psychology, Accreditation, law, academia.

Harbiy ta'lim jarayonini tashkil etish, samarali natijalarga erishish sohadagi bugungi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Prezidentimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qomondoni Sh.M.Mirziyoyev 2018 yil 13 yanvar kuni Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida: "Qo'shinlar istalgan daqiqada o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi kerak. Ular

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

jangovar tayyorgarlikning yangi tizimi bo‘yicha muntazam shug’ullanib borishi, barcha harbiy xizmatchilar haqiqiy professional kadr bo’lishi uchun o‘z sohasini puxta egallashi shart”, - deb ta’kidladi.[1] Buning uchun esa harbiy ta’lim jarayonini zamonaviy talablardan kelib chiqib tashkillashtirish lozim. Darhaqiqat, ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagog salohiyati bilan bir qatorda mashg’ulot moddiy ta’minotini sifati ham muhim. Pedagoglar va harbiy ta’lim muassasalarida mashg’ulotga tayyorgarligi, o’zlashtirishi, bilim, ko’nikmalar bilan qurollantirilishida zamon talabidan kelib chiqib tayyorlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy ta’lim muassasasini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslari. Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo’lgan jarayon emas. Balki, ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta’lim tizimida ham boshqarishni to’g’ri tashkil etilishi juda muhim.[2] Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o’ta muhim hisoblanadi. Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma’lum bir ob’ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta’sir ko’rsatish demakdir. Harbiy ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta’lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko’ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir. Bugungi kunda pedagogika faniga ta’lim muassasalarini boshqarish bo’yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta’sir etish» tushunchasining o’rniga «o’zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo’llanilmoqda. Harbiy ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta’lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o’zaro hurmat bilan tavsiflanadi.[3]

Xo’sh, menejment va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi. Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, harbiy ta’lim muassasasida davlat-jamoa boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo’nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor. Menejment» va «menejer» atamalari hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o’z mulklari va xodimlarni o’zlari boshqarganlaridan ko’ra tanlangan yo’nalish bo’yicha maxsus tayyorgarlikdan o’tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so’ng paydo bo’ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.[4] Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta’lim muassasasi menejmenti haqida so’z yuritilganda, O’zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so’z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to’xtalib o’tilganligini alohida ta’kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, ta’lim muassasasi menejmentida quyidagi holatlar nazarda tutiladi: uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o’zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo’li bilan boshqarib borilishi; barcha darajadagi ta’lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta’lim to’g’risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi; ta’limning normativ-huquqiy azosi rivojlantiriladi; moliya-xo’jalik faoliyatini olib borish hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda o’quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta’minlanadi;[5] Harbiy ta’lim muassasalari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi; Tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta'lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi. 2022 yil 16 mart kuni O'zPFITI direktori, P.h.D., prof. X.I.Ibraimov O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining "Harbiy pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari" uslubiy seminarida "Pedagogikada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar mazmunini takomillashtirish ijtimoiy zarurat sifatida" mavzusidagi ma'ruzasi bilan ishtirok etdi. Ma'ruza yig'ilish ishtirokchilarida katta iz qoldirdi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi P.h.D., prof. X.I.Ibraimovni tashkilot rahbariyatining maxsus tashakkurnomasi bilan taqdirladi. Hozirgi kunda esa Harbiy ta'lim muassasalarida pedagogik menejment samaradorligi oshirishga katta e'tibor berilmoqda.[6]

Harbiy pedagogika - harbiy o'quv yurtlarida beriladigan ta'lim-tarbiyaning nazariy-amaliy masalalarini o'rganuvchi pedagogika fanining alohida bo'limidir. Bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin «innovatsiya» so'zining ma'nosiga biroz to'xtalishni lozim topdik. Innovatsiya tushunchasi (lotincha «novus» - yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo'llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o'rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o'zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo'g'inini yangilash bo'yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega. Harbiy ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo'llash talab etiladi. Shu maqsadda pedagoglarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini qo'yish lozim. Pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiy-pedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa ancha past bo'ladi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyosida va darajada umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarga ta'lim berish jarayonida ular harbiy xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, ma'naviy-axloqiy va jangovar sifatlari, hissiy-irodaviy turg'unligi, jangovar holatlarda aniq va ishonchli harakat qilish uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun harbiy ta'lim jarayonini tashkil etishda turlicha yondashuvlar mavjud. Harbiy

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

ta’limga davlat va jamiyat tomonidan qo’yiladigan talablarda harbiy ta’lim sohalari bo’yicha o’zaro muvofiqlik va mutanosiblik to’la ta’minlanadi.[7] Shu jihatdan harbiy ta’lim standartini belgilashda ta’lim jarayonining tarkibi, xuddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini modernizatsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo’llash imkoni hisobga olingan. Pedagogika fani va ta’lim-tarbiya amaliyotida turli yondashuvlar qo’llaniladi. Yillar davomida qo’llanib kelinayotgan an’anaviy yondashuv bilan bir qatorda hozirgi kunda ta’limga zamonaviy yondashuvga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’limga tizimli, texnologik, tadqiqiy, funksional, kompleks, faoliyatli yondashuvlar zamonaviy yondashuvga misol bo’la oladi.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, Harbiy ta’lim muassasalarida pedagogik menejment samaradorligini oshirish uchun zamonaviy yondashuvga alohida e’tibor qaratish kerak. Harbiy ta’lim muassasalarida asosan Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Harbiy ta’lim muassasalarida pedagogik menejment bo‘yicha mashg’ulotni, o’zlashtirishi, bilim, ko’nikmalar bilan qurollantirilishida zamon talabidan kelib chiqib tayyorlanishi o‘quvchilarga muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1 Kirlanov T.G. Oliy ta’limga nisbatan faol ta’lim usullari tasnifi /Yosh olim. No 5 (15), 2015. P.337-339

2 Satib-Aldiev A.A. Ta’limning faol shakl va metodlari. // Metodik tavsiyalar: - Toshkent OUQBYU, 2007. – 45 b.

3 Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o’rganish: Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. – M., Akademiya, 2009 y.

4 Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir / O’zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig’ilishdagi nutqi // Vatanparvar, 2018 yil, 13 yanvar.

5 http://www.ziyonet.uz/

6 Isropilov.M.B. The role of pro technologies in ensuring the sustainable development of Society //Open Access Repository.-2023.-T. 4.-Na. 2.-C. 729-735. 7 Akhmedova F. Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan-Eastern European Scientific Journal, 2018